

**“IPAK YO‘LI” TURIZM VA MADANIY MEROS XALQARO
UNIVERSITETI SENATINING 10-SON YIG‘ILISHI
BAYONI**

Raislik qiluvchi:

**Ma’muriy masalalar
bo‘yicha birinchi prorektor
D.A.Nasimov**

Bayonni yurituvchi:

Protokol kotibiyati
bo‘limi bosh mutaxassisi
A.Izbasarova

2025-yil 28-noyabr

soat: 15.00

109-xona

Qatnashuvchilar: D.A.Nasimov, R.J.Hoffmann, T.Q.Zou, A.Gadayev, A.To‘xtamishov, N.Xushvaqto‘v, M.Yorqulov, N.Abdovaxidova, S.Matlabov, F.Nurov, N.Mansurova, T.Sultanov, T.Akramova, N.Turdiyeva, O.Boynazarov, N.Raximova, X.Ibragimov.

Taklif etilganlar: Sh.Mardanova, M.A.Yusupova, N.Sidiqov.

KUN TARTIBI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezident Administratsiyasi, Vazirlar Mahkamasi, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi va Turizm qo‘mitasi, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda viloyat hokimligining direktiv hujjatlari.

Birinchi prorektor prof. D.A.Nasimovning axboroti.

2. 2025-yil yanvar-noyabr oylarida universitetga kelib tushgan Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari hamda universitet “edo.ijro.uz” elektron tizimiga kelib tushgan topshiriqlar ijrosi holati to‘g‘risida.

Ijro intizomi, devonxona va arxiv bo‘limi boshlig‘i Sh.Mardanovanning axboroti.

3. 2025/2026-o‘quv yilida bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bitiruvchilarining bitiruv malakaviy ishlari (BMI) va magistrlik dissertatsiya mavzularini tasdiqlash hamda ularga ilmiy rahbar tayinlash to‘g‘risida.

O‘quv jarayonini rejalashtirish va rivojlantirish bo‘limi boshlig‘i M.Yorqulovning axboroti.

4. Ijarada va talabalar turar joylarida yashovchi talabalar bilan olib borilayotgan ma’naviy-ma’rifiy, tarbiyaviy ishlar to‘g‘risida.

Yoshlar bilan ishlash, ma’naviyat va ma’rifat bo‘limi boshlig‘i N.Abdovaxidovanning axboroti.

5. Har xil masalalar.

5.1. “Xalqaro biznes va kreativ iqtisodiyot kafedrası” kafedrası dots, v.v.b. Raximova Nilufar Aminovnaning tomonidan magistratura menejment ta’lim yo’nalishi talabalari uchun tayyorlagan “Project management in tourism and hospitality” nomli uslubiy qo’llanmasini nashrga tavsiya etish haqida.

Ilmiy tadqiqotlar bo’limi boshlig’i N.Mansurovaning axboroti.

5.2. Xalqaro biznes va kreativ iqtisodiyot” kafedrası dotsent v.b, PhD Nigina Sultanovanning tomonidan “Mikroiqtisodiyot” fanidan 60411300 – Mehmonxona biznesi 60411200 – Menejment (ommaviy tadbirlar menejmenti), 60411200 – Menejment (turizm biznesini boshqarish), 61010400 – Turizm (faoliyat yo’nalishlari bo’yicha) ta’lim yo’nalishi talabalari uchun tayyorlagan “Mikroiqtisodiyot” nomli uslubiy qo’llanmasini nashrga tavsiya etish haqida.

“Xalqaro biznes va kreativ iqtisodiyot kafedrası” kafedrası mudiri N.Raximovanning axboroti.

5.3. Ilmiy-ommabop nashrlarni chop etishga tavsiya etish to’g’risida.

“Ipak yo’li” xalqaro tadqiqot instituti direktori M.A.Yusupovanning axboroti.

5.4. 2025/2026-o’quv yilida o’qitiladigan fanlar bo’yicha elektron resurslarning tayyorlanish holati to’g’risida.

Kutubxona bo’lim boshlig’i N.Sidiqovning axboroti.

1-MASALA

Eshitildi: Birinchi prorektor D.Nasimovning “Prezident Administratsiyasi, Vazirlar Mahkamasi, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o’zgarishi vazirligi hamda Turizm qo’mitasi, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda viloyat hokimligining direktiv hujjatlari ijrosi to’g’risida”gi axboroti eshitildi.

1. Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 01-16-202-xdfu-sonli “Oliy ta’lim tashkilotlarini 2025-yilda kompleks rivojlantirish bo’yicha tasdiqlangan

chora-tadbir dasturning ijrosini ta'minlash yuzasidan" nazorat rejasi ijrosi to'g'risida.

2. O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasining 2025-yil 21-noyabrdagi 03-17/275-sonli "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 20-noyabrdagi "Butunjahon turizm tashkiloti shafeligida Xalqaro turizm akademiyasi kampusi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-350-son qarorida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash bo'yicha Turizm qo'mitasining nazorat rejasi ijrosi to'g'risida.

Kun tartibidagi 1-masala bo'yicha Senat a'zolari tomonidan berilgan barcha taklif va tavsiyalar ko'rib chiqilib, universitet Senati

QAROR QILADI:

1. Birinchi prorektor D.A.Nasimovning "Prezident Administratsiyasi, Vazirlar Mahkamasi, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi hamda Turizm qo'mitasi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda viloyat hokimligining direktiv hujjatlari ijrosi to'g'risida"gi axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 01-16-202-xdfu-sonli "Oliy ta'lim tashkilotlarini 2025-yilda kompleks rivojlantirish bo'yicha tasdiqlangan chora-tadbir dasturning ijrosini ta'minlash yuzasidan" nazorat rejasi ijrosi o'z vaqtida ta'minlansin.

Mas'ullar: A.Gadaev, M.Yorqulov, N.Abduvaxidova, N.Mansurova, X.Toshpulatov.

3. O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasining 2025-yil 21-noyabrdagi 03-17/275-sonli "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 20-noyabrdagi "Butunjahon turizm tashkiloti shafeligida Xalqaro turizm akademiyasi kampusi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-350-son qarorida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash bo'yicha Turizm qo'mitasining nazorat rejasi ijrosi

Mas'ullar: Z.Sulaymonov, N.Mansurova, A.Xolbaev, O.Boynazarov, X.Toshpulatov, A.Sultonov, I.Kadirova.

2-MASALA

Eshitildi: Ijro intizomi, devonxona va arxiv bo'limi boshlig'i Sh.Mardanovanning "2025-yil yanvar-noyabr oylarida universitetga kelib tushgan Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari hamda universitet "edo.ijro.uz" elektron tizimiga kelib tushgan topshiriqlar ijrosi holati to'g'risida"gi axboroti eshitildi.

1. 2025-yil 1-noyabrdan 10-dekabrga qadar universitet "edo.ijro.uz" elektron tizimiga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari, Qarorlari, Vazirlar Mahkamasi Qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasi,

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Samarqand viloyati hokimligi hamda turli tashkilotlardan jami 4577 ta hujjat kelib tushgan, shundan 4206 ta hujjat ijrosi o‘z vaqtida ta’minlangan. Hozirda 304 ta topshiriq bajarilmoqda, 67 ta topshiriq ijrosi muddatidan kech bajarilgan.

Universitetga jismoniy va yuridik shaxslardan 2025-yil noyabr oyi holatiga ko‘ra 1 ta murojaat kelib tushgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasidan 1 ta Qoriyev Shoxruh Nozimjon o‘g‘li universitetda kollej diplomini ololmayotganligi to‘g‘risida murojaat kelib tushgan. Murojaat ijrosi ta’minlandi, ya’ni murojaatchiga huquqiy tushuntirish berildi.

Kun tartibidagi 2-masala bo‘yicha Senat a‘zolari tomonidan berilgan barcha taklif va tavsiyalar ko‘rib chiqilib, universitet Senati

QAROR QILADI:

1. Ijro intizomi, devonxona va arxiv bo‘limi boshlig‘i Sh.Mardanovanning “2025-yil yanvar-noyabr oylarida universitetga kelib tushgan Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari hamda universitet “edo.ijro.uz” elektron tizimiga kelib tushgan topshiriqlar ijrosi holati to‘g‘risida”gi axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Soha prorektorlari, bo‘lim boshliqlari, dekan ofisi hamda kafedra mudirlari (T.Sultanov, O.Boynazarov, H.Ibragimov, T.Akramova, N.Raximova)ga:

- O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarorlari, Farmonlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, farmoyishlari, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasi, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Viloyat hokimligi hamda turli tashkilot va idoralardan kelgan barcha turdagi topshiriqlar ijrosi “edo.ijro.uz” elektron platformasidan foydalangan holda belgilangan muddatlarga qat’iy rioya qilgan holda sifatli bajarilishini ta’minlash vazifasi topshirilsin;
- “edo.ijro.uz” tizimiga kelib tushgan topshiriqlar ijrosini belgilangan muddat ichida bajarmaslik yoki muddati o‘tib bajargan mas’ul ijrochilarga nisbatan universitetning 2024-yil 9-yanvardagi 4-sonli buyrug‘i asosida intizomiy jazo qo‘llanilsin;
- jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlashda qonunchilikda belgilangan tartiblarga amal qilinishi ta’minlasin. Universitetga kelib tushgan murojaatlar ijrosiga befarq bo‘lgan, ya’ni o‘z vaqtida ijrosini ta’minlamagan yoki muddatini o‘tkazib bajargan mas’ullarga nisbatan universitetning 2024-yil 27-fevraldagi 32-sonli buyrug‘iga asosan intizomiy jazo qo‘llanilsin.

3. Soha prorektorlari, bo‘lim boshliqlari, dekan ofisi hamda kafedra mudirlari universitetga kelib tushgan Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlashda qonunchilikda belgilangan tartiblarga amal qilinishini ta‘minlasin.

4. Universitetga kelib tushgan murojaatlar ijrosiga befarq bo‘lgan, ya‘ni o‘z vaqtida ijrosini ta‘minlamagan yoki muddatini o‘tkazib bajargan mas‘ullarga nisbatan universitetning 2024-yil 27-fevraldagi 32-sonli buyrug‘iga asosan intizomiy jazo qo‘llanilsin.

3-MASALA

Eshitildi: O‘quv jarayonini rejalashtirish va rivojlantirish bo‘limi boshlig‘i M.Yorqulovning “2025/2026-o‘quv yilida bakalavriat ta‘lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bitiruvchilarining bitiruv malakaviy ishlari (BMI) va magistrlik dissertatsiya mavzularini tasdiqlash hamda ularga ilmiy rahbar tayinlash to‘g‘risida”gi axboroti eshitildi.

2025/2026-o‘quv yilida bakalavriat ta‘lim yo‘nalishlari bo‘yicha 106 nafar bitiruvchi hamda magistratura mutaxassisliklari bo‘yicha 180 nafar talaba uchun bitiruv malakaviy ishlar va magistrlik dissertatsiya mavzularini tasdiqlash zarurligi qayd etildi.

Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining “Yakuniy davlat attestatsiyalarini tashkil etish to‘g‘risida”gi amaldagi buyruq talablariga muvofiq, bitiruvchi talabalarga ilmiy rahbarlar biriktirilishi kerakligi alohida ta‘kidlandi.

Hozirgi kunda:

- bakalavriat bitiruvchilariga o‘quv yuklamalari hisobidan ilmiy rahbarlar belgilangan;

- magistratura bosqichi talabalari orasidan 100 nafariga ilmiy rahbarlar biriktirilgan.

Shu bilan birga, universitetda ilmiy darajaga ega professor-o‘qituvchilar sonining cheklanganligi, shuningdek, ta‘lim yo‘nalishlarida o‘qitish tili ingliz tili ekanligi bois, bir professor-o‘qituvchining bir o‘quv yilida rahbarlik qilishi mumkin bo‘lgan maksimal talaba sonini 10 nafargacha belgilash maqsadga muvofiqligi ta‘kidlandi.

Kun tartibidagi 3-masala bo‘yicha Senat a‘zolari tomonidan berilgan barcha taklif va tavsiyalar ko‘rib chiqilib, universitet Senati

QAROR QILADI:

1. O‘quv jarayonini rejalashtirish va rivojlantirish bo‘limi boshlig‘i M.Yorqulovning “2025/2026-o‘quv yilida bakalavriat ta‘lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bitiruvchilarining bitiruv malakaviy ishlari (BMI) va

magistrlik dissertatsiya mavzularini tasdiqlash hamda ularga ilmiy rahbar tayinlash to'g'risida"gi axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. 2025/2026-o'quv yilida bakalavriat (106 nafar) va magistratura (180 nafar) bitiruvchilarining bitiruv malakaviy ish va magistrlik dissertatsiya mavzulari tasdiqlansin. Bitiruvchi talabalarga ilmiy rahbarlar biriktirish Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining Yakuniy davlat attestatsiyalariga oid buyruqlari talablariga muvofiq amalga oshirilsin.

3. Universitetdagi professor-o'qituvchilar yuklamasi va ilmiy salohiyatini inobatga olgan holda bakalavriat bitiruvchilariga ilmiy rahbarlar tayinlangani ma'lumot uchun qabul qilinsin.

4. Magistratura bosqichidagi 100 nafar talabaning ilmiy rahbarlari tasdiqlansin. Universitetda mavjud ilmiy salohiyat va ta'lim tili o'ziga xosligini hisobga olib, bir professor-o'qituvchiga bir o'quv yilida 10 nafardan ortiq bitiruvchiga rahbarlik qilish ma'qullansin.

4-MASALA

Eshitildi: Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi boshlig'i N.Abduvaxidovanning "Ijarada va talabalar turar joylarida yashovchi talabalar bilan olib borilayotgan ma'naviy-ma'rifiy, tarbiyaviy ishlar to'g'risida"gi axboroti eshitildi.

Talabalar turar joyida yashovchi talabalar sonining umumiy holati bo'yicha hozirgi vaqtda 350 nafarni tashkil etmoqda. Ulardan 350 nafari quyidagi toifalar bo'yicha rasmiy ro'yxatga olingan:

Talabalar toifalari bo'yicha taqsimoti

№	Talabalar toifasi	Soni
1	Mahalliy talabalar (universitet)	251 nafar (157 qiz, 94 o'g'il)
2	Xorijiy talabalar	39 nafar
3	Texnikum talabalari	60 nafar
	Jami	350 nafar

Tahliliy ma'lumotlar:

- Mahalliy talabalar TTJda yashovchilarning asosiy qismini tashkil etib, umumiy sonning 74,8% ini tashkil qiladi.
- Xorijiy talabalar ulushi 9,9% ga teng.
- Texnikum talabalari 15,3% ulushga ega.
- TTJ bandligi deyarli **100%** bo'lib, mavjud sig'imdanda to'liq foydalanilayotganini ko'rsatadi.

Tarbiyaviy, ma'naviy-ma'rifiy va profilaktik ishlar bo'yicha talabalar turar joyda tajribali tarbiyachi-pedagog Qo'ldosheva Gavhar Nurullaevna faoliyat yuritib, talabalar ma'naviy-ma'rifiy tarbiyasi, ichki tartib-qoidalarning bajarilishini nazorat qilish, sog'lom va barqaror ma'naviy-psixologik muhitni shakllantirish yo'nalishlarda tizimli ishlar olib bormoqda. Tarbiyachi-pedagog tomonidan muntazam ravishda profilaktik suhbatlar, ma'naviy-ma'rifiy uchrashuvlar, sport va madaniy-ma'rifiy tadbirlar va psixologik qo'llab-quvvatlash ishlari tashkil etib kelinmoqda.

TTJda faol talabalar ishtirokida tuzilgan "Qalqon" guruhi tartib-intizom va xavfsizlikni ta'minlash borasida samarali faoliyat olib bormoqda. Guruhning asosiy vazifalari talabalar xavfsizligini ta'minlash, noxush holatlarning oldini olish, kechki va tungi vaqtlarda TTJ hududida jamoat tartibini nazorat qilishdan iborat.

"Qalqon" guruhi universitet inspektori Shukur Qurbonov bilan hamkorlikda profilaktika tadbirlarini tashkil etish, huquqiy targ'ibot ishlarini olib borish, turar joy va uning atrofidagi xavfsizlik holatini monitoring qilish kabi yo'nalishlarda muntazam ishlarni amalga oshirmoqda.

Ijara xonadonlarda yashovchi talabalar holati

"Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universitetining kunduzgi ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan 105 nafar talaba ijara xonadonlarda yashamoqda. Shundan:

- 72 nafar qiz,
- 33 nafar o'g'il talabalar.

80 ta manzilda joylashgan Ijara xonadonlar o'rganilganda:

- 4 ta xonadon — sariq hudud,
- 1 ta xonadon — qizil hudud toifasiga kirishi aniqlandi.

Hozirda tyutorlar tomonidan mazkur hududlarda yashayotgan talabalarni xavfsizroq hududdagi boshqa ijara xonadonlariga yoki DXSh turar joylariga ko'chirish masalasi ko'rib chiqilmoqda.

Tyutorlar va universitet inspektori tomonidan ijara xonadon egalarining ijtimoiy-axloqiy holati, yashash sharoitlari, texnik va yong'in xavfsizligi talablariga rioya etilishi bo'yicha to'liq o'rganib chiqildi.

O'tkazilgan o'rganishlar natijasida quyidagi holat kuzatildi:

1) Talabalar turar joyidagi talabalar soni barqaror va toifalar bo'yicha taqsimot qoniqarli.

2) Mahalliy, xorijiy va texnikum talabalari uchun teng va qulay sharoitlar yaratilgan. TTJda tartib-intizom, xavfsizlik va ma'naviy-psixologik barqarorlik ta'minlangan. Ijara xonadonlarda yashayotgan talabalar bilan ishlash tizimli olib borilib, xavfli hududlarda joylashgan xonadonlarga nisbatan choralar ko'rilmogda.

Umuman olganda, tarbiyachi-pedagog, universitet inspektori va faol talabalar hamkorligi natijasida DXShda talabalar uchun qulay, xavfsiz va sog‘lom yashash muhiti yaratilgan.

Kun tartibidagi 4-masala bo‘yicha Senat a‘zolari tomonidan berilgan barcha taklif va tavsiyalar ko‘rib chiqilib, universitet Senati

QAROR QILADI:

1. Yoshlar bilan ishlash, ma‘naviyat va ma‘rifat bo‘limi boshlig‘i N.Abduvaxidovanning “Ijarada va talabalar turar joylarida yashovchi talabalar bilan olib borilayotgan ma‘naviy-ma‘rifiy, tarbiyaviy ishlar to‘g‘risida”gi axboroti ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

5. HAR XIL MASALALAR

Eshitildi:

5.1. Ilmiy tadqiqotlar bo‘limi boshlig‘i N.Mansurovaning “Xalqaro biznes va kreativ iqtisodiyot” kafedrasi dots, v.v.b. Raximova Nilufar Aminovnaning tomonidan magistratura menejment yo‘nalishi talabalari uchun tayyorlagan “Project management in tourism and hospitality” nomli uslubiy qo‘llanmasini nashrga tavsiya etish to‘g‘risida”gi axboroti eshitildi.

XXI asrda turizm va mehmondo‘stlik sohasi jahon iqtisodiyotining eng tez rivojlanayotgan yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, ushbu sohada amalga oshiriladigan har bir tashabbus, loyiha va dastur puxta rejalashtirish va samarali boshqaruvni talab etadi. Mazkur jarayonlarning markazida esa zamonaviy loyiha boshqaruvi yondashuvlari va ularni turizm sohasi xususiyatlariga mos qo‘llay oladigan malakali mutaxassislar turadi. Shu ma‘noda N.A. Raximovanning “Project Management in Tourism and Hospitality” nomli uslubiy qo‘llanmasi o‘ta dolzarb mavzuga bag‘ishlangan bo‘lib, turizm va mehmondo‘stlikdagi loyiha boshqaruvi masalalarini tizimli va keng qamrovli yoritib bergan manba sifatida e‘tiborga loyiqdir.

Qo‘llanmada avvalo turizmda loyiha boshqaruvining nazariy asoslari, “project lifecycle”, “predictive, iterative va adaptive life cycles”, “project management process groups” kabi zamonaviy konsepsiyalar bosqichma-bosqich tushuntiriladi. Muhimi, mazkur nazariy tushunchalar umumiy tarzda emas, balki aynan turizm va mehmondo‘stlik sanoatining o‘ziga xos jihatlari – mavsumiylik, talabning o‘zgaruvchanligi, ko‘p sonli manfaatdor tomonlar ishtiroki, barqarorlik talablari va raqobat sharoitida qo‘llanilishi misolida tahlil qilinadi. Bu esa qo‘llanmani faqat nazariy emas, balki amaliy jihatdan ham foydali qiladi.

Uslubiy qo‘llanmada loyiha tashabbusidan tortib, uning tashkiliy-huquqiy asoslarini shakllantirish, biznes-reja va texnik-iqtisodiy asos tayyorlash, manfaatdor tomonlar bilan ishlash, loyiha jamoasini shakllantirish, byudjetlashtirish, risklarni boshqarish, sifatni ta‘minlash va yakuniy monitoring hamda baholashgacha bo‘lgan jarayonlar

izchil yoritilgan. Alohida boblarda turizm loyihalarida qo‘llaniladigan an’anaviy (Waterfall, V-model) va zamonaviy (Agile, Lean, Six Sigma, PRINCE2) yondashuvlar taqqoslab berilgan, ularning turizm amaliyotiga moslashtirilgan shakllari misollar bilan ochib berilgan.

Qo‘llanmaning yana bir muhim jihati – unda loyiha boshqaruvi jarayonlari turizm industriyasining zamonaviy chaqiriqlari bilan integratsiyada ko‘rib chiqilganidir. Xususan, barqaror turizm, ekologik va ijtimoiy ta’sirlarni baholash, mahalliy hamjamiyat manfaatlarini hisobga olish, texnologik innovatsiyalar (raqamli platformalar, sun’iy intellekt, VR/AR, “smart tourism”)dan foydalanish kabi masalalar amaliy misollar asosida tahlil qilingan. Bu jihatlar kelajakdagi turizm menejerlari uchun mazkur qo‘llanmani ayniqsa ahamiyatli qiladi.

Til va uslub nuqtayi nazaridan qo‘llanma sodda, tushunarli va ilmiy-uslubiy me’yorlarga mos yozilgan. Inglizcha atamalar izohli tarzda qo‘llanilib, talabalarning nafaqat mahalliy, balki xalqaro ilmiy manbalar bilan ishlashiga ham zamin yaratadi. Har bir bob yakunida berilgan savollar, topshiriqlar va muhokama uchun vazifalar o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish va amaliy vaziyatlarga tatbiq etish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Uslubiy qo‘llanmani matni va uslubiy jihatlari belgilangan talablarga javob beradi.

Uslubiy qo‘llanmani nashrga tavsiya etish bo‘yicha taqrizlar mavjud.

Kun tartibidagi 5.1.-masala bo‘yicha Senat a’zolari tomonidan berilgan barcha taklif va tavsiyalar ko‘rib chiqilib, universitet Senati

QAROR QILADI:

1. Ilmiy tadqiqotlar bo‘limi boshlig‘i N.Sh.Mansurovaning axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. “Xalqaro biznes va kreativ iqtisodiyot kafedrası ” kafedrası dots, v.v.b. Raximova Nilufar Aminovnaning tomonidan magistratura menejment yo‘nalishi talabalari uchun tayyorlagan “Project management in tourism and hospitality” nomli uslubiy qo‘llanmasi tasdiqlansin va “Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universitetiga qarashli nashriyotdan universitetning byudjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan 20 dona nashr etilishiga ruxsat berilsin.

3. Qaror ijrosini nazorat qilish Reja-moliya bo‘limi boshlig‘i Z.Sulaymonov, Tahririy-nashriyot bo‘limi bosh mutaxassisi H.Karimov zimmasiga yuklatilsin.

Eshitildi:

5.2. “Xalqaro biznes va kreativ iqtisodiyot” kafedrası mudiri N. Raximovanning “Xalqaro biznes va kreativ iqtisodiyot” kafedrası dotsent v.b, PhD Nigina Sultanovanning tomonidan “Mikroiqtisodiyot” fanidan 60411300 – Mehmonxona biznesi 60411200 – Menejment (ommaviy tadbirlar menejmenti),

60411200 – Menejment (turizm biznesini boshqarish), 61010400 – Turizm (faoliyat yo‘nalishlari bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun tayyorlagan “Mikroiqtisodiyot” nomli uslubiy qo‘llanmasini nashrga tavsiya etish haqida”gi axboroti eshitildi.

“Mikroiqtisodiyot” nomli ushbu o‘quv qo‘llanma iste’molchilar talabining o‘zgarishi, real sektorda yaratilayotgan tovar va xizmatlar narxining shakllanishi, foydani maksimallashtirish, shuningdek, narxga va boshqa omillarga bog‘liq talab va taklif elastikligining mazmun mohiyati, davlatning bozorga aralashuvi, ya’ni tovarlarga minimal va maksimal narxlarni o‘rnatish va uning oqibatlari bilan bog‘liq tushunchalar, qarashlarni sababiy bog‘liqlikda tizimli tahlil yo‘nalishlarini ochib berishga bag‘ishlangan.

Ayniqsa, talab va taklifning o‘zaro ta’siri, narx mexanizmining bozor muvozanatini ta’minlashdagi o‘rni, elastiklik ko‘rsatkichlari, ishlab chiqarish xarajatlari va foydani maksimallashtirish strategiyalari kabi dolzarb masalalar muallif tomonidan tahlil qilingan. Uslubiy qo‘llanmani matni va uslubiy jihatlari belgilangan talablarga javob beradi.

Uslubiy qo‘llanmani nashrga tavsiya etish bo‘yicha taqrizlar mavjud.

Kun tartibidagi 5.2.-masala bo‘yicha Senat a’zolari tomonidan berilgan barcha taklif va tavsiyalar ko‘rib chiqilib, universitet Senati

QAROR QILADI:

1. “Xalqaro biznes va kreativ iqtisodiyot” kafedrası mudiri N. Raximovanning axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. “Xalqaro biznes va kreativ iqtisodiyot” kafedrası mudiri N. Raximovanning “Xalqaro biznes va kreativ iqtisodiyot” kafedrası dotsent v.b, PhD Nigina Sultanovanning tomonidan “Mikroiqtisodiyot” fanidan 60411300 – Mehmonxona biznesi 60411200 – Menejment (ommaviy tadbirlar menejmenti), 60411200 – Menejment (turizm biznesini boshqarish), 61010400 – Turizm (faoliyat yo‘nalishlari bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun tayyorlagan “Mikroiqtisodiyot” nomli uslubiy qo‘llanmasi tasdiqlansin va “Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universitetiga qarashli nashriyotdan universitetning byudjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan 20 dona nashr etilishiga ruxsat berilsin.

3. Qaror ijrosini nazorat qilish Reja-moliya bo‘limi boshlig‘i Z.Sulaymonov, Tahririy-nashriyot bo‘limi bosh mutaxassisi H.Karimov zimmasiga yuklatilsin.

Eshitildi:

5.3. “Ipak yo‘li” xalqaro tadqiqot instituti direktori M.A.Yusupovaning “Ilmiy-ommabop nashrlarni chop etishga tavsiya etish to‘g‘risida”gi axboroti eshitildi.

Birinchi kitob men tomonidan nashrga tayyorlangan “Buxoro me‘morchilik maktabi XV-XVII asrlar” nomli kitob 2022-yilda Markaziy Osiyo tadqiqotlari xalqaro institutida rus tilida chop etilgan. Tadqiqotchilar, olimlar, talabalar uchun mazkur kitobni o‘zbek tilida chop etishni maqsad qilganmiz. Asarning rus tilidagi nashriga akademik E.Rtveladze ilmiy muharrirlik qilgan, taqrizchilar esa professor I.A.Bondarenko va professor D.A.Nozilovlar taqriz bergan. O‘zbekcha nashrga professor Shoira Nurmuhammedova va professor Baxtiyor Babajonovlar tomonidan berilgan taqrizni e‘tiboringizga havola etaman. Nashr va unga berilgan taqrizlar taqdimot qilindi.

Ikkinchi ilmiy-ommabop nashr bo‘yicha institutimiz bo‘lim mudiri M.A.Yunusov tomonidan nashrga tayyorlangan. Bu V.L.Vyatkinning Samarqand me‘moriy yodgorliklari, Buxorodagi Amir Ismoil maqbarasi, Shayboniylar tarixiga doir materiallarni o‘z ichiga olgan, jami 370 sahifalik qo‘lyozmasi hisoblanadi. Yaxyo G‘ulomov nomidagi Samarqand arxeologiya instituti direktori, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori, katta ilmiy xodim Mo‘minxon Saidov va Toshkent kimyo xalqaro universiteti Samarqand filiali Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasini mudiri, dotsent Utkir Mattiyevlar ushbu nashr o‘zlarining taqrizlarini berishgan. Noyob qo‘lyozma arxitektura fanlari doktori, professor Mavlyuda Yusupova tomonidan ko‘rib chiqildi va ilmiy muharrirligida nashrga tayyorlandi. Shuningdek, nashr matni Zarafshon gazetasi bosh muharriri o‘rinbosari Anastasiya Pavlenko va filologiya fanlari nomzodi, dotsent Tatyana Niyazovalar tomonidan tahrir qilingan. M.A.Yunusov tomonidan nashr va unga berilgan taqrizlar taqdimot qilindi.

Uchinchi ilmiy-ommabop nashr institut ilmiy xodimi Svetlana Jukova tomonidan nashrga tayyorlangan. Bu 2 ta yo‘l ko‘rsatgich bo‘lib, ulardan birinchisi “Samarqand XIX asr oxiri-XX asr boshlarida (yangi shahar). Fotoyo‘lko‘rsatgich”, ikkinchisi “XIX asr oxiri-XX asr boshlarida Samarqand. Yo‘l ko‘rsatgich.” deb nomlangan. Ikki nashr ham professor M.A.Yusupova tomonidan ilmiy jihatdan tahrir etilgan. Nashrga “Ipak yo‘li” xalqaro tadqiqot instituti bo‘lim mudiri, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori Maxmudxon Yunusov va o‘lkashunos Aleksandr Galak tomonidan berilgan taqrizlar o‘qib eshittirildi. Muallif nashrlar bo‘yicha taqdimot qildi.

Kun tartibidagi 5.3.-masala bo‘yicha Senat a‘zolari tomonidan berilgan barcha taklif va tavsiyalar ko‘rib chiqilib, universitet Senati

QAROR QILADI:

1. “Ipak yo‘li” xalqaro tadqiqot instituti bo‘lim mudiri M.A.Yunusov tomonidan nashrga tayyorlangan V.L.Vyatkinning Samarqand me‘moriy yodgorliklari, Buxorodagi Amir Ismoil maqbarasi, Shayboniylar tarixiga doir materiallarni o‘z ichiga olgan qo‘lyozmasi haqidagi ma‘lumotlar atroflicha ko‘rib chiqilib, ushbu ilmiy-ommabor nashr tasdiqlansin va chop etishga tavsiya etilsin.

2. Professor M.A.Yusupova “Buxoro me‘morchilik maktabi XV-XVII asrlar” ilmiy-ommabop nashr tasdiqlansin va chop etishga tavsiya etilsin.

3. Institut mutaxassisi S.A.Jukova tomonidan nashrga tayyorlangan “Samarqand XIX asr oxiri-XX asr boshlarida (Yangi shahar). Fotoyo‘lko‘rsatgich” va “XIX asr oxiri-XX asr boshlarida Samarqand. Yo‘l ko‘rsatgich” deb nomlangan ilmiy-ommabop nashrlar tasdiqlansin va chop etishga tavsiya etilsin.

Eshitildi:

5.4. Kutubxona bo‘lim boshlig‘i N.Sidiqovning “2025/2026-o‘quv yilida o‘qitiladigan fanlar bo‘yicha elektron resurslarning tayyorlanish holati to‘g‘risida”gi axboroti eshitildi.

“Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universitetida 2025/2026-o‘quv yili uchun universitet professor-o‘qituvchilari tomonidan o‘qitilayotgan fanlardan o‘quv adabiyotlarning elektron resurslari kutubxona fondiga ro‘yxatga olinmoqda. 2023/2024-o‘quv yili uchun ham elektron resurslar kutubxona fondiga kirim qilingan edi. Bundan tashqari 2025/2026-o‘quv yili uchun universitet hisobidan mablag‘ ajratilgan bo‘lib, hozirgi kunda universitet professor-o‘qituvchilari tomonidan kerakli adabiyotlar ro‘yxati shakllantirilmogda. “Ipak yo‘li ” turizm va madaniy meros xalqaro universitetning o‘quv jarayonini rejalashtirish va rivojlantirish bo‘limi bilan birgalikda ro‘yxatga asosan adabiyotlar sotib olish rejalashtirilgan. Bosma shakldagi kitoblar bilan birgalikda adabiyotlarni elektron shakllarini ham xarid qilish ko‘zda tutilgan.

Kun tartibidagi 5.4.-masala bo‘yicha Senat a‘zolari tomonidan berilgan barcha taklif va tavsiyalar ko‘rib chiqilib, universitet Senati

QAROR QILADI:

1. Kutubxona bo‘lim boshlig‘i N.Sidiqovning “2025/2026-o‘quv yilida o‘qitiladigan fanlar bo‘yicha elektron resurslarning tayyorlanish holati to‘g‘risida”gi axboroti ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

Bayonnoma yurituvchi:

Protokol kotibiyati bo‘limi

bosh mutaxassisi

A.Izbasarova

**“IPAK YO‘LI” TURIZM VA MADANIY MEROS XALQARO
UNIVERSITETI SENATINING DOIMIY A‘ZOLARI RO‘YXATI**

2025-yil 28-noyabr

soat: 15.00

109-xona

№	Familiyasi, ismi va otasining ismi	Lavozimi	Imzo
1.	prof. D.A.Nasimov	Ma'muriy masalalar bo'yicha birinchi prorektor, Senat raisi o'rinbosari	
2.	prof. R.J.Hoffmann	O'quv ishlari bo'yicha prorektor	
3.	prof. T.Q.Zou	Ilmiy tadqiqotlar va innovatsiya ishlari bo'yicha prorektor	
4.	A.M.Gadayev	Ishlar boshqarmasi boshlig'i	
5.	A.Q.To'xtamishov	Ta'lim sifatini ta'minlash va akkreditatsiya bo'limi boshlig'i	
6.	N.H.Xushvaqto'v	Dekan	
7.	N.A.Abduvaxidova	Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi boshlig'i	
8.	S.N.Matlabov	Kasaba uyushmasi boshlang'ich tashkiloti raisi	
9.	F.J.Nurov	Registrator ofis bo'limi boshlig'i	
10.	M.Yorqulov	O'quv jarayonini rejalashtirish va rivojlantirish bo'limi boshlig'i	
11.	N.Sh.Mansurova	Ilmiy tadqiqotlar bo'limi boshlig'i	
12.	T.I.Sultanov	“Tillar va global tadqiqotlar” kafedrasini mudiri	
13.	O.F.Boynazarov	“Tarix va madaniy meros” kafedrasini mudiri	
14.	X.I.Ibragimov	“Turizm” kafedrasini mudiri	
15.	T.K.Akramova	“Yozma va og'zaki tarjima tadqiqotlari” kafedrasini mudiri	
16.	N.A.Raximova	“Xalqaro biznes va kreativ iqtisodiyot” kafedrasini mudiri	
17.	N.M.Turdiyeva	“Yozma va og'zaki tarjima tadqiqotlari” kafedrasini dotsenti, PhD	
18.	VAKANT	Talabalar parlamenti prezidenti	